

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.3.1./YEKR8544>
UDC: 343.1(045)(575.1)

JINOVAT HUQUQI PRINSIPLARI: QONUNCHILIK VA HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA TATBIQ ETISH MASALALARI

Toshpulatov Akrom Ikromovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar nomzodi
ORCID: 0000-0002-3029-2767
e-mail: a.toshpulatov4@gmail.com

Annotatsiya. Jinoyat qonunchiligining samarali tizimini yaratish davlatning qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, tinchlik va xavfsizlikni ishonchli himoya qilish bo'yicha ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Alovida turdag'i jinoyatlarni sodir etganlik uchun sanksiyalar qilmishlarning ijtimoiy xavflik xususiyati va darajasiga nomuvofiqligi, jumladan, jazoning muqobil turlari, rag'batlantiruvchi normalar va jamoat ta'sir choralar yetarli darajada qo'llanmasligi va samarasizligi bu borada ilmiy izlanishlar olib borishning dolzarbligini belgilaydi. Maqolada Jinoyat kodeksiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarning jinoyat huquqi prinsiplariga qanchalik mosligi masalasi tadqiq qilingan. Shuningdek, Jinoyat kodeksi Maxsus qismi normalari tahlili asosida ayrim jinoyatlar uchun qonunda belgilangan jazolar ularning ijtimoiy xavfeligiga mos emasligi ko'rsatib berilgan. Muallif insonparvarlik va odillik prinsiplarini jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan faqat yengilroq jazo qo'llash uchun asos sifatida baholamaslik kerakligini ta'kidlagan. Maqolada jinoiy jazoni o'tashdan bo'yin tovslashni sud hujjatlarini ijro etmaslik jinoyatidan farqlash, jinoiy jazo tayinlashda teng huquqlilik prinsipiga rioya etish, jinoiy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirishga oid takliflar bildirilgan.

Kalit so'zlar: qonun, jinoyat, prinsip, qonuniylik, insonparvarlik, odillik, javobgarlik, jazo.

ПРИНЦИПЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ: ВОПРОСЫ РЕАЛИЗАЦИИ В ЗАКОНОТВОРЧЕСКОЙ И ПРАВОПРИМЕНИТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ

Тошпулатов Акром Икромович,
кандидат юридических наук, самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Создание эффективной системы уголовного права является одной из приоритетных задач государства по обеспечению законности и правопорядка, прав и свобод человека, интересов общества и государства, мира и безопасности. Несоответствие санкций за совершение отдельных видов преступлений характеру и степени общественной опасности деяний, в том числе альтернативных видов наказания, недостаточное использование и неэффективность поощрительных норм и мер общественного воздействия определяют актуальность проведения научных исследований в этой области. В статье анализируется соответствие изменений и дополнений в Уголовный кодекс с принципами уголовного права. Также на основе анализа норм Особенной части Уголовного кодекса Республики Узбекистан обосновано, что предусмотренные законом наказания за некоторые преступления не соответствуют их общественной опасности. Автор подчеркивает, что принципы гуманности и справедливости не должны расцениваться только как основание для применения к виновным более мягкого наказания. В статье представлены предложения по разграничению уклонения исполнения от уголовного наказания от преступления неисполнения судебных актов, соблюдению принципа равноправия при назначении уголовного наказания, совершенствованию системы уголовной ответственности и наказаний.

Ключевые слова: закон, преступление, принцип, законность, гуманность, справедливость, ответственность, наказание.

PRINCIPLES OF CRIMINAL LIABILITY: IMPLEMENTATION ISSUES IN LEGISLATIVE AND LAW ENFORCEMENT PRACTICE

Toshpulatov Akrom Ikromovich,
Independent Researcher,
Tashkent State University of Law,
Candidate of Legal Sciences

Abstract. The creation of an effective system of criminal law is one of the priority tasks of the state to ensure law and order, human rights and freedoms, the interests of society and the state, peace and security. The discrepancy between sanctions for committing certain types of crimes and the nature and degree of public danger of acts, including alternative types of punishment, insufficient use and inefficiency of incentive norms and measures of social influence determine the relevance of scientific research in this area. The article analyzes the correspondence of changes and additions to the Criminal Code with the principles of criminal law. Also, based on the analysis of the norms of the Special Part of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, it is substantiated that the penalties provided by law for certain crimes do not correspond to their public danger. The author emphasizes that the principles of humanity and justice should not be regarded as a basis for applying only milder punishment to the guilty. The article presents proposals for distinguishing between the evasion of execution from

criminal punishment from the crime of non-execution of judicial acts, the observance of the principle of equality in the imposition of criminal punishment, and the improvement of the system of criminal liability and punishment.

Keywords: law, crime, principle, legality, humanity, justice, responsibility, punishment.

Kirish

Jinoyat huquqining Jinoyat kodeksi 3-10-moddalarida mustahkamlangan prinsiplari nafaqat qonun ijodkorligi, balki huquqni qo'lllash amaliyotida ham bir xil ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasidagi vazifalarni amalga oshirish uchun javobgarlikning asoslari va prinsiplari, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanini aniqlash, ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini belgilanishi ko'rsatilgan.

Shunday ekan, rahbariy, yo'naltiruvchi g'oyalar sifatida qanday qilmishlar jinoyat hisoblanishi va ular uchun jazo belgilashda jinoyat huquqi prinsiplari talablariga rioya etilyaptimi?

Sud-tergov amaliyoti hamda JK normalari tahlili jinoyat huquqi prinsiplari talablariga har doim ham amal qilinmayotganini ko'rsatmoqda. Jumladan, qilmishlarni ijtimoiy xavfli deb hisoblash va ularni jinoyat qonunchiligiga kiritish, jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab jazo tayinlashda qonuniylik, tenglik, odillik, insonparvarlik va ayb uchun javobgarlik prinsiplariga mosligi bo'yicha bahsli holatlar mavjud bo'lib, ushbu maqolada bir qancha misollar asosida mazkur masalaga e'tibor qaratishga harakat qilingan.

Tadqiqot obyektini sud-tergov amaliyoti va amaldagi JK normalarida prinsiplarning qo'llanishiga oid ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi.

Material va metodlar

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligi, xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligi, sud amaliyoti materiallari tahlili, amaliyot xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari, soha olimlarining mazkur masala yuzasidan ilmiy ishlari tahlil qilindi.

Tadqiqot metodlari sifatida qiyosiy-huquqiy, empirik tadqiqot, statistik ma'lumotlar tahlili, so'rov o'tkazish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

JK Maxsus qismi normalari hamda sud amaliyoti tahlili jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligiga qarab jazo belgilash, JKga ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlik belgilaydigan yangi normalarni kiritish, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish, jazodan ozod qilishda JK prinsiplariga moslikni ta'minlashda ayrim nomuvofiqliklar borligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, ma'lum bir jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlashga oid Oliy sud Plenumi qarorlari tushuntirishlarining maqomi masalasi ham o'z yechimini topmagan bo'lib, ushbu tushuntirishlar ba'zan amaldagi jinoyat

qonunchiligi normalariga muvofiq kelmaslik holatlari ham mavjud. Bu, ayniqsa, qonuniylik prinsipi tahlilida yaqqol namoyon bo'ladi.

Qonuniylik prinsipiga muvofiq, hech kim sudning hukmi bo'lmay turib, jinoyat sodir etishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emas.

Ushbu qoida har qanday jinoiy jazoga tortiladigan qilmish sud hukmi bilan aybli deb topilishi va unga sud hukmi bilan jazo belgilanishini nazarda tutadi.

JKda shaxsning sud tomonidan belgilangan jazoni o'tashdan bo'yin tovlagani uchun unga sudning ajrimi bilan og'irroq jazo berilishi (sud hukmi bilan belgilangan jazo o'rniha og'irroq jazo bilan almashtirilishi) qonuniylik prinsipiga qanchalik mos keladi?

Jinoyat huquqidagi qonuniylik prinsipining asosiy yo'nalishi shaxsning asossiz jinoiy javobgarlikka tortilishidan muhofaza qilish hisoblanadi [1].

Qonuniylik prinsipining eng muhim ahamiyati inson huquqlarini himoya qilish va qilmishlarni o'zboshimchalik bilan kvalifikatsiya qilishning oldini olishda namoyon bo'ladi [2].

Qonuniylik prinsipi qilmishning jinoyligi va jazoga sazovorligiga oid qoidalarning qat'iy tartibga solinganligi hamda qonun normalarining qat'iy talqin qilinishini talab qiladi.

JKning 42-moddasida jazo tushunchasi belgilangan bo'lib, u jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan hamda mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasisidir. Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llanadi.

JKning 44-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, agar shaxs jarima jazosini o'tashdan bo'yin tovlasa, ushbu jarima jazosi og'irroq jazo choralarini bo'lgan majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazolari bilan almashtirilishi mumkin.

Shuningdek, JKning 45¹-moddasi beshinchi qismida mahkum majburiy jamoat ishlari jazosini o'tashdan bo'yin tovlagan taqdirda, ushbu jazo ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan, 46-moddasining to'rtinchi qismida mahkum axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashdan bo'yin tovlaganda, ushbu jazo ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan, 481-moddasi oltinchi qismida mahkum ozodlikni cheklash jazosini o'tashdan bo'yin tovlasa, u boshqa turdag'i jazo bilan almashtirilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Aynan shunday qoidalari voyaga yetmaganlarga nisbatan ham qo'llanishi mumkinligi JKning 82-, 82¹-, 83- va 84¹-moddalarida ham nazarda tutilgan.

Shaxs sud hukmi bilan tayinlangan ma'lum bir jazoni o'tashdan bo'yin tovlashi natijasida ushbu jazo chorasi boshqa og'irroq jazo chorasiga almashtirish sud hukmi bilan emas, balki ajrimi bilan amalga oshiriladi. Jumladan, JPKning 539-moddasiga muvofiq, jarima solish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari va ozodlikni cheklashni boshqa jazo turi bilan almashtirish Jinoyat kodeksining 44-, 451-, 46-, 481-, 82-, 821-, 83- va 841-moddalariga muvofiq, suda tomonidan jazoni ijro

etuvchi organlarning taqdimnomasiga ko'ra yoki jamoat birlashmasi yoxud mehnat jamoasining iltimosnomasi bo'yicha amalga oshiriladi. Bu haqda sud ajrimi qabul qilinadi.

Shu o'rinda biron-bir jinoyat uchun belgilangan jazoni o'tashdan bo'yin tovlaganlik uchun uni boshqa og'irroq jazo chorasi bilan almashtirish va bu almashtirishni sud ajrimi orqali qo'llash qonuniylik prinsipi hamda JKning 42-moddasida nazarda tutilgan jazo ta'rifiga to'g'ri keladimi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Masalaning chigalligi shundaki, JKning 232-moddasida sud hujjatini ijro etmaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra, muayyan harakatlarni sodir etish yoxud ularni sodir etishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklovchi sud hujjatini bajarishdan bo'yin tovlashni ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin davom ettirish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

B. Yusupovning ta'kidlashicha, "sud hujjatlarini bajarishdan bo'yin tovlash deganda jismoniy yoki mansabdor shaxsning qonunda belgilangan muddatlarda sud hukmi, hal qiluv qarori yoki boshqa sud hujjatini ijro etish yoki ularni amalga tatbiq etish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rmasligi tushuniladi" [2].

F. Tohirov sud hujjatini ijro etmaganlik uchun jinoiy javobgarlik masalasida xorijiy mamlakatlar qonunchilagini tahlil qilgan. U Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Armaniston, Rossiya, Polsha, Ispaniya davlatlari Jinoyat kodekslarida sud hujjatini ijro etmaganlik uchun jinoiy javobgarlik masalalarini tahlil qilish asosida JKning 232-moddasi birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etishni taklif qilgan: "Muayyan harakatlarni sodir etish yoxud ularni sodir etishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklovchi sud hujjatini jami bo'lib uch oydan ortiq muddat mobaynida bajarishdan bo'yin tovlash, shuningdek, sud hujjatining ijro etilishiga to'sqinlik qilish" [3].

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ushbu masalaga yechim topishga harakat qilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 10-apreldagi "Sud hujjatlarini bajarishdan bo'yin tovlash va ularning ijro etilishiga to'sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlikka doir qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori 1-bandining to'rtinchi xatboshisida Jinoyat kodeksining 232-moddasi dispozitsiyasida nazarda tutilgan sud hujjati deganda, qonuniy kuchga kirgan sud buyrug'i, ajrim, qaror, hal qiluv qarori, hukm tushunilishi lozimligi belgilangan. Ushbu qarorning 3-bandiga muvofiq, Oliy sud jinoiy javobgarlik nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan sud hujjati, ya'ni muayyan harakatlarni sodir etish yoxud ularni sodir etishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklovchi hujjatni bajarishdan bo'yin tovlaganlik uchun vujudga keladi. Mulkiy xususiyatga ega bo'lgan sud hujjati, ya'ni pul mablag'lari yoki mol-mulkni undirish to'g'risidagi hujjatni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi [4], deb tushuntirish bergan.

Shu bilan birga, jinoyat qonunida istisnolar ham nazarda tutilgan, ya'ni nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan sud hujjatini bajarishdan bo'yin tovlaganlik jinoiy javobgarlikni emas, balki boshqa oqibatlarni keltirib chiqaradi. Jumladan, axloq tuzatish ishlaridan bo'yin tovlagan mahkumning javobgarligi uni jinoiy javobgarlikka tortish yo'li bilan emas, balki axloq tuzatish ishlarining o'talmagan muddatini

ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtirish orqali ta'minlanadi (JKning 46-moddasi to'rtinchchi qismi).

JKning 232-moddasi dispozitsiyasi mazmuniga ko'ra, sud hujjatining ijro etilishiga to'sqinlik qilganlik uchun shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun sud hujjatining xususiyati ahamiyat kasb etmaydi. Shu bois sud hujjati ijro etilishiga to'sqinlik qilganlik uchun jinoiy javobgarlik sud hujjatining mulkiy yoki nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan-bo'lмаганligidan qat'i nazar, yuzaga keladi.

Ko'rinib turibdiki, Oliy sud Plenumi qarorida JK normalarini sharhlashda biroz chetga chiqib ketilgan. JKda sud hujjatini ijro etmaslik mulkiy xususiyatga ega bo'lgan yoki mulkiy xususiyatga ega bo'lмаган qilmishlarga nisbatan qo'llanishi haqida hech qanday ko'rsatma mavjud emas. Ushbu holat qilmishning jinoyligi va jazoga sazovorligi faqat JK bilan belgilanishi haqidagi qonuniylik prinsipiga zid hisoblanadi.

Y.Y. Cherednichenko Rossiya JKdan jarima, axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashdan bo'yin tovlaganlik uchun (qonun bu qilmishlarni jinoyat deb topmagan) ushbu jazo chorasi og'irroq jazo bilan almashtirish qonuniylik prinsipi mazmuniga zid deb, jazoni o'tashdan bo'yin tovlaganlik uchun og'irroq jazo chorasi bilan almashtirishga oid normalarni JKdan chiqarib tashlash hamda RF JKning 315-moddasi tahririni kengaytirib, jazoni o'tashdan bo'yin tovlash holatlarini sud hujjatlarini ijro etmaslik sifatida kvalifikatsiya qilishni taklif qilgan.

Albatta, bu fikr bahsli hisoblanadi, shu bilan bиргаликда, unda e'tibor qaratish, muhokama qilib ko'rish kerak bo'lgan holatlar mavjud:

birinchidan, jarima yoki axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashdan bo'yin tovashning JK sud hujjatini ijro etmaganlik uchun jinoiy javobgarlik (JK 232-m.) belgilangan qilmishlardan qanday farqi mavjud?

ikkinchidan, JKning 42-moddasida jinoiy jazo faqat sud hukmi bilan tayinlanishi belgilangan bo'lib, jazoni og'irrog'i bilan almashtirish esa sud ajrimi bilan amalgalashirilishi asoslimi?

uchinchidan, jarima yoki axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari, ozodlikni cheklash jazolarini o'tashdan bo'yin tovash alohida jinoyat tarkibi hisoblanmasa, unda shu holatlar uchun og'irroq jazo belgilash hech kim aynan bitta jinoyati uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emasligini belgilaydigan odillik prinsipiga zid bo'lib qolmaydimi?

to'rtinchidan, sud tomonidan belgilangan jazodan bo'yin tovlagani uchun mahkumga og'irroq jazo chorasi belgilansa va mahkum og'irroq jazo chorasi iじro etishdan ham bo'yin tovlasa, unda mahkumga yanada og'irroq jazo chorasi qo'llash kerak bo'ladi. Bu esa sud hujjatlari ijro etilishini ta'minlashga oid munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Albatta, Y.Y. Cherednichenkoning yuqorida ko'rsatib o'tilgan taklifi jinoyat qonunchiligi konsepsiysi jiddiy o'zgartirilishi, amalda o'rnatilgan va qo'llab kelinayotgan tartiblarning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin hamda uning oqibatlarini ham oldindan aniqlash juda qiyin. Shu bilan bиргаликда, mazkur masala nazariy jihatdan tadqiq qilinishi zarur deb hisoblaymiz.

JKning yangi tahriri loyihasida bunday savollarga javob berilishi kerak. Fikrimizcha, sud hukmi bilan tayinlangan jazolarni ijro etmaslik oqibatida ularni og‘irroq jazo turi bilan almashtirish hamda sud hujjatlarini ijro etmaganlik uchun javobgarlik belgilangan norma o‘rtasidagi farq aniq belgilanishi, sud hujjatlarini bajarmaganlik bo‘yicha Oliy sud tomonidan berilgan tushuntirish qayta ko‘rib chiqilishi kerak.

Sud amaliyotida jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlaganlik og‘irroq jazo chorasi bilan almashtirilgan hollarda, bunday og‘irroq jazo chorasi ham ijro etishdan bo‘yin tovlash holatlari uchrab turadi.

Masalan, Jinoyat ishlari bo‘yicha Bandixon tuman sudida tuman IIB tomonidan mahkum A.A.T.ga nisbatan jazo turini almashtirish haqidagi taqdimnoma ko‘rib chiqilgan. Ish hujjatlariga ko‘ra, A.A.T.ga 2022-yil 11-maydagi hukmga ko‘ra, JK 229¹-moddasi ikkinchi qismida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir qilganligi uchun BHMning 35 baravari miqdorida jarima jazosi tayinlangan. 2022-yil 14-sentabrda jarima jazosining o‘talmay qolgan qismi JKning 44-moddasiga asosan, 87 soat majburiy jamoat ishlari almashtirilgan. Ammo mahkum A.A.T. majburiy jamoat ishlarini ham bajarishdan bo‘yin tovlagani uchun 2022-yil 29-noyabrdagi sud ajrimi bilan tuman IIBning taqdimnomasi qanoatlantirilib, mahkum A.A.T.ga nisbatan Bandixon tuman sudining 2022-yil 14-sentabrdagi ajrimi bilan tayinlangan 87 soat majburiy jamoat ishlari jazosi 21 (yigirma bir) kun muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirilgan [5].

Natijada o‘n million besh yuz ming so‘m jarima to‘lashi kerak bo‘lgan mahkum 21 kun ozodlikdan mahrum qilish (ma’muriy qamoq desa ham bo‘ladi) bilan jazoni o‘tab ketmoqda. Bunda JKning 50-moddasida ozodlikdan mahrum qilish jazosining eng kam muddati bir oy qilib belgilanganligini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Jinoiy jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlaganlik uchun uni og‘irroq jazo turi bilan almashtirish bilan bog‘liq yana bir qancha muammolar mavjud. JKga ozodlikni cheklash jazosi belgilangan 481-modda 2015-yilda kiritilgan. Ushbu jazo o‘z mazmuniga ko‘ra, shaxsga biron-bir moddiy, mulkiy oqibat keltirib chiqarmaydi, u faqat mahkumning yashash joyini tark etishni butunlay yoki sutkaning muayyan vaqtida taqiqlashdan iborat bo‘lgan jazo chorasi hisoblanadi.

M.M. Haydarovning ta’kidlashicha, “dunyoning aksariyat rivojlangan davlatlari jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining hozirgi tendensiyalaridan biri mahkumni jamiyatdan ajratib qo‘yish bilan bog‘liq bo‘limgan jazolardan keng foydalanishdir. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi uchun ozodlikni cheklash jazosi nisbatan yangi hisoblanadi, chunki u milliy jinoyat qonunchiligidagi 2015-yilda paydo bo‘lgan” [6].

Ushbu jazoning xususiyatiga to‘xtalmasdan JKdagi jazolar o‘talmaganida, uni og‘irroq jazo bilan almashtirish qoidalari qonuniylik, odillik va insonparvarlik prinsiplariga qanchalik mos kelishi bilan bog‘liq yana bir qancha savollar yuzaga keladi.

JKning 44-moddasiga ko‘ra, jarima jazosini o‘tashdan bo‘yin tovlanganda, u og‘irroq jazo chorasi bo‘lgan ozodlikni cheklash jazosi bilan almashtirilishi mumkin. Jarima jazosi BHMning 5 baravaridan 600 baravarigacha miqdorda belgilanadi. 2022-yil

noyabr oyida BHM 300 000 so‘mga teng ekanligidan kelib chiqilsa, jinoiy jazo sifatida jarima 1 mln besh yuz ming so‘mdan 180 mln so‘mgacha miqdorni tashkil qiladi va bu shaxsning moddiy holatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar mahkum jarima jazosini to‘lashdan bo‘yin tovlasa, sud ushbu jazo turini uch yildan oshmagan muddatga ozodlikni cheklash jazosiga almashtirishi mumkin.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ozodlikni cheklash shaxsning moddiy ahvoliga ta’sir ko‘rsatmaydi. U ishlayotgan bo‘lsa, ishini davom ettirib, oylik ish haqi olaveradi, faqat sud tomonidan belgilangan ma’lum bir harakat erkinligi cheklanishi mumkin. Ya’ni shaxs uchun jarima jazosini ijro qilishdan bo‘yin tov lash uning uchun og‘irroq oqibat emas, balki yengilroq oqibat keltirib chiqaradi. Bu qilmishning jazoga sazovorligini belgilaydigan qonuniylik, jinoyat sodir etgan shaxsning axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur va yetarli jazo tayinlashda ifodalanadigan insonparvarlik, jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi jinoyatning og‘ir-yengilligi, ayb va shaxsning ijtimoiy xavfliligiga muvofiqligida ifodalanadigan odillik prinsipining mohiyatiga zid hisoblanadi.

Xuddi shunday holat jarima jazosini o‘tashdan bo‘yin tovlanganda, uni axloq tuzatish ishlari jazosi bilan almashtirishda ham namoyon bo‘ladi. Ayrim holatlarda jarima jazosi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda, agar mahkum ishsiz bo‘lsa, uni ishga joylashtirish kerak bo‘ladi va u jazoni o‘tash bilan birgalikda ish bilan ta’milanib, oylik ish haqi ham olib turadi. Bu jazoni o‘tamaganlik uchun og‘irroq jazo emas, balki jazoni o‘tashdan bo‘yin tov lashni rag‘batlantirish hisoblanadi.

Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish bilan bog‘liq holatlarda ham mantiqsizlik bor. JKning 74-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoning o‘talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda, axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o‘talmagan qismi muddatiga tayinlanadi. JKning 46-moddasiga muvofiq, axloq tuzatish ishlari olti oydan uch yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin.

T.X. Altmishev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Probatsiya xizmatining axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazosini ijro etish faoliyatidagi navbatdagi muammo qonunchilikdagi bo‘sliq va nomuvofiqliklar sifatida axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoning Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan tartibda yengilroq yoki og‘irroq jazoga almashtirishdagi muddatlarda ko‘rinadi. Biroq ushbu masaladagi muammoning mohiyati sudlar tomonidan JKning 74-moddasi tartibida ozodlikdan mahrum etilgan yoki ozodligi cheklangan shaxslarga nisbatan sud jazoning o‘talmagan qismini yengilroq jazo sifatida axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo bilan almashtirishida namoyon bo‘ladi. Chunki JKning 74-moddasi to‘rtinchı qismi talablariga ko‘ra: “Ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoning o‘talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda, axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o‘talmagan qismi muddatiga tayinlanadi”.

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 74-moddasi uchinchi qismi “v” bandiga ko‘ra: “o‘ta og‘ir jinoyati uchun, shuningdek, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish qo‘llangan va jazoning o‘talmagan qismi mobaynida qasddan sodir etgan yangi jinoyati uchun sud tayinlagan jazo

muddatining kamida yarmini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llanishi mumkin". Ushbu moddaning tahlilidan ko'rinish turibdiki, o'ta og'ir jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llangan ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosi sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin yengilroq jazo sifatida axloq tuzatish ishlari almashtirilganda, ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o'talmagan muddati qancha bo'lishidan qat'i nazar, shu muddatdagi axloq tuzatish ishlari almashtiriladi. Bunda axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoning eng ko'p muddati sifatida uch yil belgilanganligi inobatga olinmay qoladi" [7].

Ushbu holat bo'yicha sud amaliyotini tahlil qilamiz.

2022-yil 2-dekabrda jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudida tuman IIB taqdimnomasiga binoan, axloq tuzatish ishlari jazosini ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirish bo'yicha ish ko'rib chiqilgan. Ish hujjatlariga muvofiq, mahkum A.A. muqaddam JKning bir nechta moddalari bilan ayblanib, 2014-yil 7-iyuldagagi hukmga binoan, unga 9 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan. 2016-yil 13-maydagi ajrim bilan o'talmay qolgan 4 yil 27 kun axloq tuzatish ishlari almashtirilgan. Tuman sudining 2017-yil 17-maydagi ajrimi bilan unga JK 73-moddasi qo'llanib, 1 yil 10 oy 7 kun axloq tuzatish ishlari jazosidan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan. Tuman sudi tomonidan 2019-yil 25-sentabrda 8 yil 6 oyga ozodlikdan mahrum qilingan. Tuman sudining 2022-yil 19-yanvardagi ajrimi bilan JKning 74-moddasi uchinchi qismi "b" bandiga asosan, o'talmay qolgan 5 yil 7 oy 26 kun ozodlikdan mahrum qilish jazosi shu muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi bilan almashtirilgan. Mahkum ushbu axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashdan bo'yin tovlaganligi uchun o'talmay qolgan 5 yil 7 oy 26 kun muddatdagi axloq tuzatish ishlari shuncha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirilgan [8].

Bu yerda JKning 46-moddasi ikkinchi qismida belgilangan axloq tuzatish ishlari jazosining belgilangan muddatiga zid holat mavjud. Fikrimizcha, ushbu bahsli holatni hal qilish uchun JKning 46-moddasi ikkinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi:

"Axloq tuzatish ishlari olti oydan uch yilgacha muddatga tayinlanadi. Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan hollarda jazoning o'talmay qolgan qismi yengilroq jazoga almashtirilganda, axloq tuzatish ishlari o'talmay qolgan jazo muddatiga tayinlanadi".

Bundan tashqari, keyingi vaqtlarda JKga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni ham qonuniylik prinsipi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish zarur. Ba'zi hollarda qonun chiqaruvchi qonun bilan qo'riqlanadigan obyektlarni belgilashda qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashda bir tomonlamalikka, huquqni qo'llovchi organlarning ma'lum bir pozitsiyani bo'rttirib ko'rsatishlariga yon berishiga yo'l qo'yilayotgandek tuyiladi. Fikrimizcha, ushbu holat JKga 2019-yil 2-maydagi Qonun bilan uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan 244⁴-moddaning kiritilishi hamda shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining samoviy hududidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan 2601-moddaga kiritilgan

o'zgartirishlar, shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning O'zbekiston Respublikasining samoviy hududidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun javobgarlik belgilangan 116²-moddasiga kiritilgan o'zgarishlarda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining samoviy hududidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan JKning 260¹-moddasi mazmuniga ko'ra, respublikaning samoviy hududida samolyot yoki vertolyot kabi katta transport vositalaridan qonunga xilof ravishda foydalanish uchun javobgarlik xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin yuzaga keladi. Holatdagi paradoks (qarama-qarshilik) shundaki, agar samoviy hududdan samolyot yoki vertolyot kabi transport vositalaridan bir necha yuz yoki ming marta kichik, narxi o'rtasida ham juda katta tafovut borligi, oddiy yo'l sumkasi ichida ham olib yurish mumkin bo'lgan uchuvchisiz uchadigan apparatlar (dron)dan qonunga xilof foydalanish birdan JKning 244⁴-moddasi bilan jinoiy javobgarlikni yuzaga keltiradi. Boshqacha aytganda, samolyot bilan havo hududidan bиринчи мarta qonunga xilof ravishda foydalanish MJTK 116²-moddasi bilan bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan yuz baravarigacha jarima yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday qilmish bиринчи мarta uchuvchisiz uchadigan apparatlar bilan sodir etilsa, JKning 244⁴-moddasi bиринчи qismi bilan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Bundan tashqari, JKning 244⁴-moddasi mazmuniga ko'ra, uchuvchisiz uchadigan apparatlar, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish ham jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Masalan, kichik hajmdagi, biron-bir marosimni tasvirga olishga mo'ljallangan dronning parragini olib kirish ham jinoiy qilmish hisoblanadi. Yana bir paradoks shundaki, shaxs agar o'qotar qurolning asosiy bo'lgan qismlari bilan bog'liq g'ayriqonuniy harakatlar sodir qilsa, jinoiy javobgarlik kelib chiqadi, ammo o'qotar qurolning asosiy qismi bo'lmasa, jinoiy javobgarlik kelib chiqmaydi. Marosimlarni tasvirga olishga mo'ljallangan dronlarning har qanday butlovchi yoki ehtiyot qismi bilan bog'liq g'ayriqonuniy harakatlar esa jinoyat deb topiladi.

Yuqoridagi misolda keltirilgan holatlar tabiiy ravishda bir qator savollarni keltirib chiqaradi. Sodir etilgan qilmishning jinoiyligi qonuniylik prinsipiga muvofiқ, Jinoyat kodeksi bilan belgilanar ekan, unda qilmishlarning ijtimoiy xavfliligini jinoyat darajasida baholashda qanday mezonlarga tayanilgan; qonun chiqaruvchi jinoyat qonuni bilan qo'riqlanishi kerak bo'lgan obyektlarning muhimligi darajasini o'lchashda qanday mezonlarga tayangan?

Jinoiy jazolarni qonunda belgilashda fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi normalariga rioya etilishi masalasiga ham e'tibor qaratish kerak. JKning 46-moddasidagi axloq tuzatish ishlari va 47-moddasida xizmat bo'yicha cheklash jazolari deyarli bir xil jazo hisoblanib, farqi faqat kimga nisbatan qo'llanishida bo'lib qolgan. Axloq tuzatish ishlarida ham, xizmat bo'yicha cheklashda ham ish haqining o'n foizidan o'ttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolish

belgilangan. Avvalo, axloq tuzatish ishlari jazosi nomlanishiga e'tibor qaratsak. JKning 46-moddasi mazmuniga muvofiq, ushbu jazo turida mahkumning axloqan tuzalishiga oid talablar mavjud emas, faqat ish haqidan ma'lum bir qismi belgilangan muddat davomida davlat daromadi uchun ushlab qolinadi. Asl mohiyatini olganda, ushbu jazo mahkum oylik ish haqidan ushlab qolish bo'lganligi uchun uni ish haqidan ushlab qolish yoki oylik daromadidan ushlab qolish deb nomlash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, xizmat bo'yicha cheklash ham mohiyatan harbiy xizmatchining pul ta'minotining ma'lum bir qismini ushlab qolishda ifodalanadigan jazo turi hisoblanadi. To'g'ri, JKning 47-moddasiga muvofiq, xizmat bo'yicha cheklashda harbiy xizmatchi pul ta'minotidan ushlab qolish bilan birgalikda uni muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilish ham nazarda tutilgan. Ammo tenglik prinsipi nuqtayi nazaridan deyarli bir xil bo'lgan jazoni shaxsning kasbiga qarab, ikkita alohida jazo turi sifatida belgilash to'g'ri emas. Fikrimizcha, ushbu ikki jazo turi birlashtirilishi, harbiy xizmatchilar tomonidan ushbu jazoni o'tash shartlariga oid alohida qoidalar ushbu moddaning alohida qismi sifatida bayon qilinishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

JKning 8-moddasi mazmuniga ko'ra, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odil bo'lishi, jinoyatning og'ir-yengilligi va shaxsning aybi hamda shaxsning ijtimoiy xavflligiga mos bo'lishi kerak. Xo'sh, ushbu prinsipga har doim ham qonun normalarini shakllantirishda rioya qilinmoqdamni?

R. Kabulov, JK Maxsus qismi normalari har doim ham qilmishning ijtimoiy xavflligiga mos emasligi to'g'risida quyidagilarni bildirgan: "Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib yoxud takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan odam savdosi JKning 135-moddasi ikkinchi qismining tegishli bandlari bilan kvalifikatsiya qilinib, ushbu qism sanksiyasida besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Ayni vaqtda bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib odam o'g'irlash uchun javobgarlik belgilangan JKning 137-moddasi ikkinchi qismida besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Bundan odam savdosi maqsadida odam o'g'irlaganlik uchun uchun javobgarlik bunday qilmishning faqat odam o'g'irlaganlikka nisbatan ijtimoiy xavflligini hisobga olmagan holda belgilangan, degan xulosa kelib chiqadi. Bunday muammo JKning 135-moddasi uchinchi qismi va 137-moddanining uchinchi qismini taqqoslaganda, yanada yaqolroq namoyon bo'ladi [9]".

R. Kabulovning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda keyingi yillarda JKga kiritilayotgan o'zgartirishlar ilmiy asosga tayanilmay ishlab chiqilayotganligi, jinoyat va uni sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavflligi yetarli darajada hisobga olinmaganligini ta'kidlash joiz. Masalan, viloyatda yashovchi ayol oilasidagilar bilan kelishmovchilik sababli boshqa viloyatga ketib qolgan. Uning qayerda yashayotganligini aniqlagan eri va qaynotasi ayol vaqtincha yashayotgan joyga kelib, uni erkiga zid ravishda majburlab, mashinaga o'tqazib, uyiga olib ketishgan. Ushbu holatga baho bergen ichki ishlari idoralari holat bo'yicha odam o'g'irlash jinoyati bo'yicha JKning 135-moddasiga asosan, jinoyat ishi qo'zg'atilganligini bildirishgan.

Mazkur holatni tahlil qilganimizda, ayolning eri va qaynotasining qilmishi bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib odam o'g'irlaganlik sifatida JKning 137-moddasi ikkinchi qismi "v" bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak. Mazkur jinoyat uchun besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan.

Agar ikki nafar shaxs ko'chada ketayotgan ayolni majburlab, mashinaga o'tqazib, o'g'irlab ketsa va uni qo'shni davlat hududiga o'tkazib, boshqa shaxsga sotib yuborsa, qilmish amaldagi qonunchilik bo'yicha JKning odam savdosi uchun javobgarlik belgilangan 135-moddasining ikkinchi qismi "a" bandida o'g'irlash, zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqtish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo'llash orqali, "i" bandida jabrlanuvchini O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasidan olib o'tgan holda yoki uni chet elda qonunga xilof ravishda ushlab turgan holda sodir etilgan jinoyat sifatida baholanadi va ushbu jinoyat uchun besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Ya'ni shaxsni o'z uyiga majburlab qaytarish uchun qilingan harakat o'n yilgacha, aksincha, shaxsni o'g'irlab, uni tovar sifatida sotib yuborish esa sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkinligi JKning 8-moddasida belgilangan odillik prinsipi mohiyatiga zid hisoblanadi.

Shunga o'xshash holat talonchilik uchun javobgarlik belgilangan JKning 166-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida belgilangan jazo choralarida ham mavjud.

JKning 166-moddasi birinchi qismida oddiy talonchilik (kvalifikatsiya qiluvchi belgilar mavjud bo'lмаган) uchun uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan.

JKning 166-moddasi ikkinchi qismida: a) hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lмаган zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqtib; b) ancha miqdorda; d) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan talonchilik uchun uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismidagi ozodlikdan mahrum qilish jazosining maksimal muddati bir xil ekanligi ham odillik prinsipiga muvofiq emas.

Shuningdek, soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish uchta alohida jinoyat tarkibini tashkil qilgan holda ushbu uchta jinoyat uchun belgilangan jazo choralarini bir xilda belgilangan. Fikrimizcha, bankrot bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektning o'z bankrotligini yashirishdan ko'ra, qasddan bankrotlikka olib kelishning ijtimoiy xavfliligi yuqoriroq bo'ladi, chunki birinchi holatda shaxsning tadbirkorlik sohasida adashganligi, noto'g'ri hisob-kitob qilganligi kabi sabablar bilan uning o'zi xohlamagan holda bankrot bo'lishi yuzaga kelsa, ikkinchi holatda shaxs ataylab bankrotlikni keltirib chiqaradi. Bunday holda ikkala qilmish uchun bir xil jazo nazarda tutilganligi JKning 8-moddasidagi odillik hamda 9-moddasidagi ayb uchun javobgarlik prinsiplariga mos emas.

Qilmishning oqibati va unga nisbatan belgilangan jazo o'rtasida nomutanosiblikni JKning xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni o'tkazish maqsadini

ko'zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun javobgarlik belgilangan 186-moddasi hamda etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik belgilangan 186¹-moddasida nazarda tutilgan jazolarda ham ko'rishimiz mumkin.

JKning 186-moddasi ikkinchi qismida odam o'limiga olib kelgan qilmish uchun uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi, odamlar o'limiga, boshqa og'ir oqibatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan qilmish uchun yetti yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan.

JKning 186¹-moddasida esa odamlar o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlar keltirib chiqarmasa-da, etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ishlab chiqarganlik yoki muomalaga kiritganlik uchun kvalifikatsiya qiluvchi belgilarga qarab o'n ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan.

Bu holat, birinchidan, Konstitutsianing 24-moddasidagi yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi ekanligi haqidagi normaga mos emasligi, ikkinchidan, JK bilan qo'riqlanadigan obyektlar orasida inson, uning hayoti ustuvor ekanligi, uchinchidan, odillik prinsipiqa muvofiq kelmaydi.

Umuman olganda, bunday holatlar JKda ko'p uchraydi va ushbu maqolada ularga batafsil to'xtalmay JKning yangi tahririni qabul qilish jarayonida bunday nomuvofiqliklar ko'rib chiqilishi, jinoyatlar uchun belgilanadigan jazolar jinoyatning ijtimoiy xavfili, oqibati va uni sodir qilgan shaxsning xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilanishi kerak, deb hisoblaymiz.

Oliy sud raisi o'rinosbosari I. Muslimov bergen ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning 10 oyi davomida 47 340 nafar sudlangan shaxslarning 31 ming 318 nafariga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'limgan boshqa turdag'i jazolar tayinlangan [10].

Statistika ma'lumotlari sudlanganlarning 66 %iga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'limgan jazolar tayinlanganini ko'rsatadi.

Oliy sudning statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning 9 oyi mobaynida sudlarda ko'rilgan ishlarning 41 % - ijtimoiy xavfi katta bo'limgan, 26 % - uncha og'ir bo'limgan, 29 % - og'ir, 4 % - o'ta og'ir jinoyatlardir [11].

JK Maxsus qismida (2022-yil 1-dekabr holati bo'yicha JK Maxsus qismida amalda 298 ta modda mavjud) belgilangan jazolar tahlil qilindi (bunda faqat modda emas, balki uning qismlari sanksiyalaridagi jazolar ham hisobga olindi) hamda quyidagilar ma'lum bo'ldi:

- jarima - 296 ta;
- muayyan huquqdan mahrum qilish - 102 ta;
- majburiy jamoat ishlari - 188 ta;
- axloq tuzatish ishlari - 255 ta;
- xizmat bo'yicha cheklash - 16 ta;
- ozodlikni cheklash - 288 ta;
- intizomiy qismga jo'natish - 14 ta;
- ozodlikdan mahrum qilish - 534 ta;
- umrbod ozodlikdan mahrum qilish - 2 ta.

Yuqoridagi raqamlardan ko'rinish turibdiki, ozodlikdan mahrum qilish jazosi JKda eng ko'p nazarda tutilgan jazo hisoblanadi. Keyingi vaqtarda jinoyatchilikka qarshi kurashishda asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida aynan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lman jazolarni qo'llashning ko'payganligi yutuq sifatida ko'rsatilmogda. To'g'ri, jinoyat sodir qilgan shaxsni imkon qadar jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatish ham iqtisodiy tomondan, ham shaxsnинг jamiyatga qayta integratsiyasi tomonidan foydali hisoblanadi. Ammo bu kampaniyavozlikka aylanib ketmasligi kerak. Tadqiqot doirasida bir necha marta ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan shaxslarga ham ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lman jazo tayinlash, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanganidan keyin yana og'ir jinoyatlar sodir qilish holatlari uchrayotganligi kuzatildi.

Jumladan, muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 2021-yilda 9 ming 724 tani tashkil qilgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2022-yilda 11 ming 635 taga yetgan, ya'ni 19,6 %ga oshgan. Shu kabi muqaddam jazoni o'tash muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 2021-yilda 168 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 9,5 foizga oshib, 184 tani tashkil etgan [12].

Umuman olganda, amaldagi jinoyat qonunchiligiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar har doim ham JKning prinsiplari mazmuni, kodeksning ichki tuzilishiga mos kelmasligi kuzatilmogda. Ba'zan ijtimoiy hayotda yuz berayotgan ayrim salbiy holatlarga nisbatan tezda chora ko'rish sifatida jinoyat qonunchiligiga kiritilayotgan o'zgartirishlar ilmiy asoslarga tayanilmasligi natijasida jamiyatdagi boshqa bir ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta'sir qilib qolishi mumkinligini inkor qilib bo'lmaydi. To'g'ri, qonun ijodkorligi doimiy ravishda rivojlanib borayotgan jarayon hisoblanadi. Jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Farmonda savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni ma'muriy yurisdiksiyaga o'tkazish; uchuvchisiz uchadigan apparatlar, ularning butlovchi va ehtiyyot qismlarini qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish harakatlarini birinchi marta sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash, ushbu toifadagi huquqbazarliklar uchun Jinoyat kodeksida belgilangan sanksiyalarga muqobil jazo choralarini kiritish vazifalarining belgilanganligi jinoyat qonunchiligining insonparvarlik va odillik g'oyalari asosida takomillashayotganligini ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan va bizning fikrimizcha, bahsli hisoblangan holatlar, avvalo, nazariy jihatdan tadqiq etilishi, qonun ijodkorligi jarayonida hisobga olinishi zarur.

Xulosalar

Qonun ijodkorligi va sud amaliyotida JK normalariga rioya etilishini ta'minlash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish taklif qilinadi:

birinchidan, qonunchilikka kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar ilmiy asosga ega bo'lishi lozim;

ikkinchidan, ijtimoiy xavfli qilmishlarni jinoyat sifatida JKga kiritishning aniq mezonlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq;

uchinchidan, JKdagi mavjud jazolar tizimini bugungi kunda jazolangan shaxsga nisbatan keltirib chiqaradigan oqibatlari bo'yicha to'g'ri tizimlashtirish zarur;

to'rtinchidan, ayrim jinoiy jazo turlarining nomlanishi uning mazmuniga mos emasligi sababli JKdagi jazo turlarini ushbu jazoning mazmunidan kelib chiqqan holda qayta nomlash zarurati mavjud;

beshinchidan, JKda jazo va probatsiya choralarini ajratish, probatsiya turlari deb nomlangan yangi normalar kiritish zarur;

oltinchidan, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish, shartli hukm qilish o'z mohiyatiga ko'ra jazodan ozod qilish hisoblanmasligi sababli ushbu choralarни alohida jazo tayinlashning o'ziga xos xususiyatlari sifatida belgilash maqsadga muvofiq;

yettinchidan, JK Maxsus qismi normalarida belgilangan jazolar qilmishlarning ijtimoiy xavfliligi jihatidan qayta ko'rib chiqilishi zarur.

REFERENCES

1. Kiyaykin D.V. Ugolovno-pravovoy printsip zakonnosti [Criminal legal principle of legality]. Abstract of PhD thesis. Saratov, 2001, p. 12.
2. Tikhomirov Y.A. Yuridicheskaya kolliziya, vlast', pravoporyadok [Legal collision, power, law and order]. *State and right*, 1994, no. 1, pp. 3–4.
3. Yusupov B. Sud hujjatlarini ijro etmaslikning obyektiv tomoni [The objective aspect of non-execution of court documents]. *Analysis of the Legislation of Uzbekistan*, 2011, no. 4, pp. 58–60.
4. Tohirov F. Xorijiy davlatlar qonunchiligidagi sud hujjatini ijro etmaslik uchun jinoiy javobgarlik masalalari [Issues of criminal liability for non-execution of a court document in the legislation of foreign countries]. *Science and Innovation*, 2022, no. 3. Available at: <http://scientists.uz/uploads/202203/C-40.pdf>
5. Cherednichenko Y.Y. Printsipy ugolovnogo zakonodatel'stva: ponyatiye, sistema, problemy zakonodatel'noy reglamentatsii (kompleksnoye teoreticheskoye issledovaniye) [Principles of criminal legislation: concept, system, problems of legislative regulation (a comprehensive theoretical study)]. Abstract of PhD thesis. Saratov, 2006, p. 10.
6. Decision of the Bandikhon District Court on criminal cases dated November 29, 2022. Available at: <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>
7. Haydarov M.M. Jinoyat qonunchiligidagi ozodlikni cheklash jazosi vujudga kelishining retrospektiv tahlili [Retrospective analysis of the emergence of the penalty of restriction of liberty in criminal law]. *Lawyer Newsletter*, 2021, no. 5, vol. 1, pp. 39–47.

8. Altmishev T.X. Probatsiya xizmatining axloq tuzatish ishlari jazosi ijrosini tashkil etish faoliyatidagi muammolari [Problems of the probation service in organizing the execution of correctional sentences]. *Journal of Legal Studies*, 2022, spec. iss., p. 148.

9. Kabulov R. Nekotoryye voprosy sovershenstvovaniya ugolovnogo zakonodatel'stva sovremennoogo Uzbekistana [Some issues of improving the criminal legislation of modern Uzbekistan]. Science and education at the modern stage: Reforms and strategic directions. Proceedings of the international scientific and practical conference. Tashkent, 2021, p. 83.

10. Muslimov I. Qonuniylik va xolislik bosh mezon [Legality and impartiality are the main criteria]. Available at: <https://sud.uz/2111-2/>

11. Criminal cases of the republic courts of the cases from the legal information. Available at: <https://stat.sud.uz/file/2022//18-10/%//.pdf>

12. Valiyev M. Jazo siyosatidagi yengilliklar yangi jinoyatlar uchun yo'l ochyapti (mi?) [Is the relaxation of the sentencing policy paving the way for new crimes?]. Available at: https://uza.uz/uz/posts/jazo-siyosatidagi-engilliklar-yangi-zhinoyatlar-uchun-yol-ochyaptimi_456032

13. Toshpulatov A.I. The principle of democratism in criminal law. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2023, no. 3 (1), pp. 118–124. DOI: 10.5281/zenodo.7594251

14. Toshpulatov A.I., Abdurasulova Q.R., Choudhoury K. The relationship of substantive and procedural law on the example of criminal law and criminal procedural law. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 2021, December, vol. 11, iss. 12. DOI: 10.5958/2249-7315.2021.00345.2

15. Toshpulatov A.I. Jinoyat-huquqiy prinsiplar tizimi: nazariy tahlil [System of criminal legal principles: theoretical analysis]. Miasto Przyszłości – City of Tommorow, Kielce, 2023, vol. 33, pp. 79–85. Available at: <http://centralasia.bioversityinternational.org/fileadmin/templates/centralasia.net/upload/Resources/TRG/5614-0052.pdf>

KRIMINOLOGIYA VA JINDOY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2023-yil 1-son

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.3.1

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BOSH MUHARRIR:

N. Salayev

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori – bosh muharrir

BOSH MUHARRIR:

Y. Kolenko

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'i – bosh muharrir

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

D. Bazarova

TDYU Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasi mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor – bosh muharrir o'rinnbosari

Mas'ul muharrir: K. Hakimov

Muharrirlar: F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik, Sh. Yusupova

Musahih: M. Patillaryeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1386.

Jurnal 2023-yil 29-aprelda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 7,44 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 20.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

ISSN 2181-2179
© Toshkent davlat yuridik universiteti